

YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK TARBIYASIDA «YOSH CHEGARACHILAR» KLUBLARINING TUTGAN O‘RNI VA ROLI

Toshkent OUQBYU chegara qo‘shinlari xizmati va taktikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi, podpolkovnik **I.V.Xalmirzayev**

Annotatsiya. Ushbu maqolada chegara hududlarida istiqomat qilayotgan yoshlar orasida muntazam ravishda harbiy vatanparvarlik tadbirlarini tashkil etish, chegara postlari hududlarida “Yosh chegarachilar” harbiy vatanparvarlik klubi faoliyati va uning yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi roli ko‘rib chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: chegara posti, chegara zona, yoshlar, “Yosh chegarachilar” klubi, harbiy vatanparvarlik klubi, kollej, harbiy xizmatga tayyorlash.

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы организации среди молодёжи, проживающей в приграничной территории, военно-патриотических мероприятий, деятельности военно-патриотического клуба «Ёш чегарачилар» на участке пограничных постов и ее роли в патриотическом воспитании молодого поколения.

Ключевые слова: пограничный пост, пограничная зона, молодежь, клуб «Ёш чегарачилар», военно-патриотический клуб, колледж, подготовка к военной службе.

O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasdir.

(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 3-moddasi)



O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 24 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigida ta‘kidlab o‘tilganidek, “dunyo shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bugungi zamonda, xalqimizning ma‘naviy qadriyatlarini, madaniyati va urf-odatlariga mutlaqo zid bo‘lgan, yot va buzg‘unchi g‘oyalarni jamiyatimiz hayotiga turli yo‘llar bilan singdirishiga qaratilgan urinishlar kuchaygan, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini egallash uchun kurash ketayotgan bir sharoitda, harbiy xizmatchilar va harbiy xizmatgacha bo‘lgan yoshdagi farzandlarimizni tarbiyalash va ularning ma‘naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirish borasidagi ishlarimizning roli va o‘rni tobora ortib bormoqda”¹.

Mustaqillik yillarida yosh avlodni istiqloq g‘oyalari cheksiz sadoqat, ona Vatanga muhabbat, mamlakatimiz milliy manfaatlarini fidokorona va mardonavor

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганлигининг 24 йиллиги муносабати билан Ватан ҳимоячиларига байрам табриги// Ватанпарвар, 2016 йил 14 январь.

himoya qilish ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan tashkiliy, targ'ibot-tashviqot, ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish barcha manfaatdor davlat va jamoat tashkilotlari bilan bir qatorda O'zbekiston "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining dasturiy vazifalaridan biriga aylandi². Harakat tomonidan 1995 yildan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan hamkorlikda "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarini yo'lga qo'yganligi buning yorqin dalilidir. Mazkur harbiy sport o'yinlari o'tgan yillar ichida minglab o'quvchi yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasi, ularni harbiy xizmatga tayyorlash yo'nalishida o'ziga xos maktab vazifasini o'tab kelmoqda.

Vatan ostonadan boshlanadi. Vatanimiz ostonasi bu bizning chegaralarimizdir. Bugungi kunda chegara hududlarida istiqomat qilayotgan maktab, kollej va litsey o'quvchilari sarhadlarimiz tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashda chegarachilarimizning yaqin hamkorlariga aylanganlar. Mana shundan kelib chiqqan holda chegara hududlarida istiqomat qilayotgan yoshlar orasida muntazam ravishda harbiy vatanparvarlik tadbirlarini tashkil etish, chegara postlari hududlarida "Yosh chegarachi" harbiy vatanparvarlik klublarini tashkil etish borasida muntazam ravishda ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Milliy Xavfsizlik Xizmati Chegara qo'shinlari qo'mondonining 2006 yil 12 oktabrdagi "Yosh chegarachilar klubi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'iga asosan, O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasini qo'riqlashda fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida, MXX Chegara qo'shinlari harbiy qismlari qoshida "Yosh chegarachilar" klublari tashkil qilingan.

Agarda 2011 yilda MXX chegara qo'shinlari harbiy qismlari qoshida harbiy chaqiriqqacha bo'lgan yoshdagi o'quvchi va talabalardan iborat 250 dan ortiq "Yosh chegarachilar" klublari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa³, 2015 yilda ularning soni 330 tadan ortdi⁴.

Bundan tashqari, hozirgi vaqtda MXX chegara qo'shinlarining qismlari va bo'linmalarida 100 dan ortiq "Yosh chegarachilar" klublarida faoliyat olib borgan yoshlar muddatli harbiy xizmatni olib borishmoqda.

Klub a'zolari bilan tashkil etilayotgan mashg'ulotlar ularda Vatanimiz xavfsizligini ta'minlash mas'uliyat xissini tarbiyalash, Davlat chegarasi daxlsiz va muqaddas ekanligini, o'zining konstitutsiyaviy huquq va majburiyatlarini, Vatan himoyasi muqaddas burch ekanligini anglash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari va Harbiy qasamyodning asosiy talablarini o'rgatish, shuningdek, xalqiga, Prezidentiga va Vataniga sadoqatli insonlar etib tarbiyalashga yo'naltirilgandir.

"Yosh chegarachilar" klublarining faoliyatidan ko'zlangan asosiy maqsad, chegara oldi hududlarida istiqomat qiluvchi fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining "Davlat chegarasi to'g'risida"gi Qonuni mohiyatini tushuntirib, ularni ham milliy xavfsizlikni ta'minlashdagi faoliyatini jadallashtirish va davlatimiz chegaralarini qo'riqlashdagi fuqarolik burchlarini, mas'uliyatini oshirishga qaratilgan.⁵

³ Ёш чегарачи – эртанги ҳимоячи/ Vatan ostonasi, 2011 йил 1 сентябрь. –Б. 23.

⁴ Юксак марраларни кўзлаган ёшлар / Vatan ostonasi, 2015 йил . –Б. 28.

⁵ "Ёш чегарачилар" клубларининг Низоми

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi Qonunini o‘rganish, MXX chegara qo‘shinlarida xizmatni o‘tash, jismoniy tayyorgarlik, saf tayyorgarligi, jangovar qurollarning tuzilishi, ularni qismlarga ajratish va yig‘ish, qurolni qo‘llash, harbiy texnika bilan ishlash, xizmat itlarini o‘qitish, chavondozlik tayyorgarligi yosh chegarachilarning sevimli mashg‘ulotlariga aylangan. Mashg‘ulotlarni tashkil etishga eng tajribali, ilg‘or ofitser va serjantlarni jalb etilishi, nazariy mashg‘ulotlarni doimiy ravishda amaliyotga mustahkamlab borilishi o‘quvchilarning mashg‘ulotlarga qiziqishlarini ortib borishiga va a‘lo natijalarga erishishlari turtki bo‘lmoqda.

Klub a‘zolarini chegara qo‘shinlari hamda harbiy qism an‘analari ruhida tarbiyalash maqsadida ularni doimiy ravishda qismlarda tashkillashtiradigan harbiy qasamyod qabul qilish, yosh askarlarga jangovar qurollarni topshirish, jangovar navbatchilikka tayyorgarlik ko‘rish hamda jangovar navbatchilikni qabul qilish, xizmat burchini sharaf bilan o‘tagan muddatli harbiy xizmatchilarni uylariga kuzatish, davlat va harbiy qism tarixi bilan bog‘liq bayram tadbirlarida, davlat chegarasini buzuvchilarga qarshi to‘qnashuvlarda mardlik va jasorat namunalarini ko‘rsatgan, davlat mukofotlari bilan mukofotlangan harbiy xizmatchilar bilan uchrashuvlar tashkil etish, harbiy burchini bajarish chog‘ida mardlarcha halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oila a‘zolaridan xabar olish kabi tadbirlarda ishtiroklari yo‘lga qo‘yilgan.

Yosh chegarachilar klublari faoliyatining yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasida tutgan o‘rni va ro‘lidan kelib chiqqan holda O‘zbekiston Respublikasi MXX Davlat chegaralarini himoya qiluvchi Qo‘mitasi hamda respublika “Kamolot” Yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi tomonidan 2011 yildan “Yosh chegarachilar” harbiy-vatanparvarlik sport musobaqalarini tashkil etish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori asosida tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida 2014 yildagi yoshlarga oid siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha tadbirlar Dasturi”ga muvofiq “Yosh chegarachilar” harbiy-vatanparvarlik musobaqalari yanada keng ko‘lam yoydi. Musobaqalar talablariga ko‘ra tuman, shahar va viloyatlar tashkil etilgan bosqichlarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgan jamoa respublika bosqichida ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi. 2015 yil musobaqalarida quyi bosqichlarda 333 ta “Yosh chegarachilar” klubi jamoasining 3300 nafar a‘zolari ishtirok etganligining o‘zi ham o‘yinlarning faoliyat darajasini ko‘rsatib turibdi.



Bugungi kunda musobaqalarning respublika bosqichiga chiqqan har bir jamoa o‘z harbiy libosiga, emblemasiga, jangovar bayrog‘i bir biridan ajralib turadi. Musobaqalarni tashkillashtirish ham yildan yilga takomillashib bormoqda. “Yosh chegarachilar” harbiy-vatanparvarlik musobaqalari dasturiga asosan jamoalar saf tayyorgarligi, safda qo‘shiq aytib o‘tish, bir kilometrga yugurish, turnikda tortilish, granata uloqtirish, to‘siqlar yo‘lagidan o‘tish, jangovar qurolni yoyib yig‘ish, jangovar quroldan o‘t ochish hamda davlat chegarasi haqidagi qonun talablari, siyosiy bilimlar borasida kuch sinashadilar.

Musobaqalar tahlili shuni ko‘rsatdiki “Yosh chegarachilar” klubi faoliyatini tashkil etishda joylarga o‘ziga xos ijobiy ish tajribalari yig‘ilgan. Bu sohada o‘tgan yillarda musobaqalarda birinchilikni egallagan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi (2011 yil), Toshkent viloyati (2012,2013 yillari) jamoalarini ta’kidlab o‘tish joiz. Keyingi uch yil davomida Surxondaryo viloyati jamoalari birinchilikni qo‘ldan bermay kelayotganligi ham mazkur viloyat hududida faoliyat yuritayotgan “Yosh chegarachilar” klubi ish faoliyatini tashkil etishda o‘ziga xos tajriba yig‘ilganligidan dalolat beradi. Soha yo‘nalishidagi o‘zaro tajriba almashishni yo‘lga qo‘yilishi klublar faoliyatini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Yurtboshimizning bayram tabriklarida ta’kidlanganidek, yoshlarimiz qalbida Vatanga yuksak muhabbat, Qurolli Kuchlarimizdan g‘ururlanish va harbiy xizmatga chuqur hurmat tuyg‘ularini kamol toptirish maqsadida harbiy vatanparvarlik yo‘nalishidagi tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishlarni yanada kuchaytirish, hech shubhasiz, alohida muhim ahamiyat kasb etadi⁶. Klublar faoliyatini takomillashtirish, “Yosh chegarachi” harbiy sport musobaqalari o‘yinlarining ommaviylikini oshirish maqsadida klub ishtirokchisi bo‘lgan yoshlarni chegara qo‘shinlariga muddatli harbiy xizmatga olish, harbiy bilim yurtlariga kirishga yo‘llanma berishni yo‘lga qo‘yish, “Yosh chegarachi” harbiy sport musobaqasi statutini o‘quvchilarning fan olimpiadasi darajasiga ko‘tarish va musobaqalarda birinchi o‘rinni egallagan jamoa a‘zolariga harbiy bilim yurtlariga o‘qishga kirishda imtiyozlar berilishini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodning har tomonlama yetuk va barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun mamlakatimizda barcha imkoniyatlar yaratilgan. Yuragida

⁶ Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганлигининг 24 йиллиги муносабати билан Втан ҳимоячиларига байрам табриги// Ватанпарвар, 2016 йил 14 январь.

Vatanga sadoqat his-tuygʻulari joʻsh urgan yigitlar esa Vatan himoyasiga oʻtlanib, xalqimiz tinchlik osoyishtaligini himoya qilishni oʻzlariga maqsad qiladi hamda klublar Oʻzbekiston Respublikasi MXX chegara qoʻshinlariga munosib oʻrinbosarlar tayyorlash maktabiga aylanadi.

Annotation: this article is devoted to the military patriotic events, which were organized among youth in the borders of our country and bringing up young generation in spirit of patriotic military, as well as, it analyzed the activities of the military patriotic “Young guards” clubs at the check points of the frontier areas and the role of up bringing the youth in the spirit of military patriotism.

Key words: young guards, military patriotic club, college, military service training.